

LEKSIKOLOGIYA VA OG'ZAKI NUTQDA SINONIM VA ANTONIMLARING ISHLATILINISHI VA LEKSIK TASNIFI

*Qo'qon Universiteti Andijon filiali, Filologiya va tillarni o'qitish
(ingliz) 25-23 guruh talabasi: **Orifjonov Sardorbek Muzaffar o'g'li***

E-Mail: sardorbek.orifjonov2409@gmail.com

*Ilmiy rahbar: Qo'qon Universiteti Andijon filiali, Ingliz filologiyasi
kafedrasi v.b. dotsenti: **Sobirov Otabek Qodirovich***

E-Mail: otabeksobirov774@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikning leksikologiya bo'limining asosiy masalalardan biri bo'lgan sinonim va antonim tushunchlari ma'lum bir darajada yoritilgan. O'g'zaki va yozma nutqda so'z ma'nosini ifoda etish uchun sinonim va antonimlarning o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada sinonimlarning turlari, ularning ma'no va uslubiy farqlari, shuningdek, antonimlarning mohiyati va nutqdagi vazifasi tahlil qilingan. Bu ikkala hodisa tilshunoslikda bir-biriga bog'liq bo'lib, og'zaki va yozma nutqda ma'no farqlashda muhim ro'l o'ynaydi.

Ushbu maqolada o'zbek tilida sinonimiya va antonimiya masalalari misollar bilan yoritilib, ularning o'zaro farqlari hamda nutqimizdagi o'rinli ahamiyati izohlangan. Ushbu tushunchalarga juda ko'p o'zbek olimlari o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan. Bulardan G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev, M.Qodirov kabi olimlarni misol qilishimiz mumkin.

Abstract: This article sheds light on the concepts of synonyms and antonyms, which are one of the main issues of the lexicology department of linguistics. The role of synonyms and antonyms in expressing the meaning of words in oral and written speech is incomparable. This article analyzes the types of synonyms, their semantic and stylistic differences, as well as the essence of antonyms and their function in speech. These two phenomena are interconnected in linguistics and play an important role in differentiating meaning in oral and written speech.

This article sheds light on the issues of synonymy and antonymy in the Uzbek language with examples, explaining their mutual differences and their relevant importance in our speech. Many Uzbek scientists have made a great contribution to these concepts with their scientific research. Among them, we can cite such scientists as G. Abdurakhmonov, A. Hojiyev, M. Qodirov.

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятия синонимии и антонимии как одни из ключевых вопросов лексикологии — раздела лингвистики, изучающего словарный состав языка. Роль синонимов и антонимов в выражении значений слов в устной и письменной речи исключительно велика. В работе анализируются типы синонимов, их семантические и стилистические

особенности, а также сущность антонимов и их функции в речи. Подчеркивается взаимосвязь этих явлений и их значимая роль в дифференциации смыслов в коммуникации.

Особое внимание уделяется вопросам синонимии и антонимии в узбекском языке: на конкретных примерах раскрываются их различия и определяется их современное значение в речи. Значительный вклад в изучение данных понятий внесли узбекские ученые, среди которых Г. Абдурахмонов, А. Ходжиев и М. Кодиров.

Kalit so'zlar: sinonim, antonim, ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar tilda qo'llanishi, semalar.

Key words: synonym, antonym, the use of contradictory words in language

Ключевые слова: синоним, антоним, слова-синонимы, слова с противоположным значением, употребление в языке, семы.

Kirish:

Til inson hayotida g'oya almashish, aloqa-aralashuvning eng muhim vositasi sanaladi. U yozma va og'zaki nutq davomida o'z ijtimoiy vazifasini amalga oshiradi. Nutqning adabiy va shevalarga xos ko'rinishlari mavjud. Masalan: chelak so'zini olsak qaysidir shevada “paqir”, yana boshqasida “satil” kabi ishlatiladi va hammasida ma'no bitta ya'ni tunukadan qilingan uy-ro'zg'or buyumi.

Adabiy nutq so'z ustalari, yozuvchilar, shoirlar hamda olimlar yordamidan ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy nutqda har bir so'z va qo'shimchani talaffuzi, imlosi, foydalanilishi, ma'nolari aniq chegaralar bilan belgilangan. Ushbu me'yorlarni buzish qo'pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish faoliyatlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi.

O'zbek tilida sinonim va antonimlar masalasini o'rganishga katta hissa qo'shgan bir qancha olimlar bor. Ulardan eng muhimlari G'.Abdurahmonov, A.Madaliev, N.Mahmudov, M.Mirtojiyevdir. G'.Abdurahmonov-o'zbek leksikologiyasi va semasiologiyasida ko'plab ishlar qilgan va biz buni uning “O'zbek tili leksikologiyasi” kitobidan bilishimiz mumkin. Ushbu kitobda sinonimlar, antonimlar hamda omonimlar haqida batafsil keltirilib o'tilgan A.Madvaliev esa sinonimiyani chuqur tarzda o'rgangan. U “Sinonimlar lug'ati” ni tuzishda ham fidokorona mehnat qilgan.

Adabiy nutq me'yorlarini buzish nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki o'z davlat tilini pisand etmaslik hamdir. Mana shuning uchun, maktab va oliygohlarda “Ona tili” o'quv fanlaridan biri sanaladi. Binobarin, mana shu fan adabiy nutq me'yorlarini o'rgatadi, undan foydalanish malakalarini takomillashtiradi.

Asosiy qism:

Ona tili juda ham boy til va har bir soʻzning koʻplab maʼnolari va koʻplab soʻzlarni bir hil maʼno anglatishi barchamizga sir emas .Bunday soʻzlarni fan tilida “sinonim”lar deb ataymiz.

Sinonim- talaffuzi va yozilishi turlicha,lekin maʼnosi bir xil soʻzlardir. Bunday soʻzlar nutqni yana ham boy va fikrni aniq yetkazilishiga olib keladi.Maʼno turiga qarab sinonimlar uchta guruhga boʻlinadi:

- 1.Maʼno sinonimlari.
- 2.Uslubiy sinonimlar.
- 3.Nutqiy sinonimlar.

Maʼno sinonimlari - bu turdagi sinonimlar maʼnosi bilan farqlanadi.Masalan, goʻzal,chiroyli,latofatli,dilbar soʻzlari “goʻzal” soʻzi bilan bir qatorda keladi. Ammo ularda shu maʼnoni ifodalash darajasi bir xil boʻlmaydi. Chiroyli goʻzaldan sal boʻrttirilgan, latofatli esa “chiroyli”dan kuchliroq va dilbarga qarab kuchayib boraveradi.Sinonimlarni birining oʻrnida ikkinchisini ishlatib boʻlmaydi. Shakli har xil maʼnosi bir xil boʻlganda ham kontekstga tushmasligi mumkin. Masalan: “Onamning chehrasi birdan yorishib ketdi”(Oʻ.Hoshimov).”Uning turqiga qarab gapirish ham ogʻir edi”(Oʻ.Hoshimov).Yuqoridagi gaplarda soʻzlarni oʻrnini almashtirib ishlatish ogʻir grammatik xato hisoblanadi. Maʼnodosh soʻzlarning yigʻindisi sinonimik qatorni tashkil etadi.Sinonimlar paydo boʻlish usuliga koʻra ikki xil boʻladi,bular-oʻz ichki maʼnolari orqali va boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar. Oʻz imkoniyatlari bilan paydo boʻlgan yaʼni oʻzbek tilidagi soʻzlarning sinonimlariga ulugʻ-buyuk kabi soʻzlardir.Boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarga dalil-fakt,reja-plan.

Ускорение-intensifikatsiya, языкознание-lingvistika va hokazo.

Uslubiy sinonimlar - bunday sinonimlarning leksik maʼnosi ijobiy yoki salbiy tushunchalar bilan qoplangan boʻladi,ayni shu uslubiy maʼno boʻlaklari (sema)lar sinonimlarning uslubiy vositasi sifatidagi qiymatini belgilaydi.Masalan, qattiqqoʻl, talabchan,intizomli,adolatli,shafqatsiz,qahri qattiq bu soʻzlarning barchasida bitta leksik maʼno yaʼni “qattiqqoʻl” kishini taʼsvirlash bor. Ammo shu maʼno **intizomli** soʻzida biroz ijobiy,**talabchan** soʻzida biroz salbiy,**shafqatsiz** soʻzida esa tanqid,salbiy maʼnolarda keladi. “Kasalxonaga yotganining dastlabki ikki-uch kuni **intizomli** bemor boʻlib ...” (Oʻ.Hoshimov). “TaFat dekaning ish yuzasidan har qanday yaqinlikni yigʻishtirib qoʻyishini,**talabchan**,qattiqqoʻl rahbar ekani, hech kimni ayab oʻtirmasligini bilardi” (Oʻ.Hoshimov). “Ehtimol tabiatning eng **shafqatsiz** elchisi bilan ham olishib oʻtirishni hohlamagandir (Oʻ.Hoshimov).

Nutqiy sinonimlar – nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan oʻzaro farqlanadigan sinonimlardir,bunday sinonimlarning maʼnosi oʻxshash, lekin nutqda aynan uslubiy yoki hissiy farq bilan qoʻllaniladigan soʻzlardir.Bunga misol qilib, **gapirmoq, tilga olmoq, ogʻiz ochmoq,bayon qilmoq** kabi soʻzlarni olishimiz mumkin. Bunday soʻzlarning oʻzagi gapirmoq va bu adabiy nutqda ham ogʻzaki nutqda

ham bir xil ma’noga ega. “Ba’zilar nima gapirganini emas, balki o’ylaganini yozishga majbur bo’ldim (Muqaddima, “Ikki eshik orasi”).” Kechagi majlisda kimdir uni tilga oldi, shunda yuragim orqaga tortdi (S.Ahmad “Ufq”). “Chol uni ko’rib qarg’ishga o’giz ochdi-yu lekin qarg’amadi, bo’yni uzilmasin, bolam’, deb ho’ngrab yubordi” (Abdulla Qahhor, Anor). “Kampir bo’lib qolganini, boshiga tushgan musibatlarni yig’lab bayon qildi” (A.Qodiriy, O’tkan kunlar).

Antonim-(yunoncha anti – “qarshi”, onyma-“nom”)-ma’nosi bir-biriga zid bo’lgan so’zlardir. Ya’ni ular bir tushunchani inkor qiluvchi yoki unga qarama-qarshi ma’noni bewruvchi so’zlardir. Bularning har bir so’z turkumida o’rni bor, ya’ni otlarda, sifatlarda, ravishlarda, fe’llarda va fe’llarning sifatdosh shaklida ham antonimlarni ko’rishimiz mumkin. Sifatlarda antonimlar juda keng tarqalgan, son va olmoshlarda umuman uchramaydigan tilshunoslik bo’limi hisoblanadi. So’zlarni antonim shakli ikki xil bo’ladi, ya’ni o’z ma’nosida yoki **no** inkor ma’no ifodalovchi qo’shimcha qo’shish orqali. Jamiyatda hamma narsani jufti bo’lgani kabi so’zlarning ham jufti bor. Juftlik bilan bir qatorda so’zni ham taqozo, ham inkor etuvchi terminlar ham mavjuddir. Antonimlar leksikologiyani ana shu juftliklarini o’ziga oluvchi bo’limidir. Bunday juftliklarga baland-pas, issiq-sovuq kabi so’zlarni misol qilishimiz mumkin.

Sifatlarda antonimlarning qo’llanishi – bu turdagi antonimlar o’z uslubida ko’plab sohalarga bo’linadi. Bular: hajm belgisiga ko’ra, harorat belgisiga ko’ra, yosh belgisiga ko’ra, xarakter-xususiyat belgisiga ko’ra, shakl belgisiga ko’ra, maza-ta’min belgisiga ko’ra.

Hajm belgisiga ko’ra qaraydigan bo’lsak katta-kichik, keng-tor va hokazolarni misol qilishimiz mumkin. Ya’ni bunda predmetning qay miqdordaligiga qaraladi. “Onamning gapiga **katta – kichik** qarshi chiqmasdi, chunki u aytgan so’z har doim adolatli bo’lardir” (O’.Hoshimov “Dunyoning ishlari”). . “**Keng – tor** dunyo deganlari shu ekan, kecha sig’magan orzular bugun tor xonaga joy topdi” (S.Ahmad “Ufq”)

Harorat belgisiga nisbatan issiq-sovuqni misol qilish mumkin, bunda ham issiq haroratni aksi (sovuq) nazarda tutilyapti. “Ularning muhabbati ko’p **issiq sovuqni** ko’rdi, amma baribir so’nmadi” (S.Ahmad “Jimjitlik”).

Yosh belgisiga qarab ham huddi shunday yosh-qarini oladigan bo’lsak, yosh inson kuch-quvvatga to’la, ko’z nuridan ayrilmagan inson tushunilsa, qari tushunchasiga yoshi 60 lardan o’tgan, sochlariga oq oralagan nuroniy otaxon (onaxon) tushuniladi. “**Yosh**ligida u juda jasur va qiziquvchan edi, hayotning har bir lazasidan zavq olar edi” (A.Qodiriy “O’tkan kunlar”). “**Qari** odamlarning hikmatli so’zlari yoshlarni yo’naltiradi, ular tajribasi bilan rahbar bo’lardir” (S.Ahmad “Ufq”).

Xarakter uchun jahldor – og’ir - bosiq, saxiy-xasis so’zlarini misol qilib ko’rsatishimiz mumkin. Bunda ham yuqoridagilar kabi ikki xil xususiyat mavjud ya’ni, jahldor deganda ko’z oldimizga asabiy, qo’rs odam tasvirlansa, og’ir - bosiq

soʻzida esa buning aksi. Yaʼni sovuqqon, rahmdil odam tushuniladi.”Otasi **jahldor**,lekin adolatli odam edi,bolalarini ham shunday tarbiyalagan (S.Ahmad Ufq).”Otabek **ogʻir** – **bosiq** yigit edi,u har narsani shoshmasdan oʻylab hal qilardi (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”).

Shakl belgisiga koʻra sifatlar turlicha boʻladi, yaʼni yumaloq - uchburchak, ozgʻin - semiz va hokazolarda antonimlarni koʻrishimiz mumkin. “Yoshligida u **ozgʻin**, ammo ruhiy kuchi katta edi” (S.Ahmad “Ufq”). “Uning mushugi **semiz** va shirin edi, har doim ovqat topib, uy atrofini kezardi” (Oʻ.Hoshimov “Dunyoning ishlari”).

Maza – taʼm belgisiga koʻra, bu turdagi antonimlarni deyarli kundalik hayotimizda ishlatmay qoʻymaymiz. Shirin – achchiq, mazali – bemaza kabilarni misol qilishimiz mumkin. “Nonning ustiga sepilgan shakar qatlami **shirin** edi, har bir boʻlagi bolalarga zavq bagʻishlardi” (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”). “Achchiq qalampir va piyoz aralashmasi oshga oʻzgacha taʼm berardi” (S.Ahmad “Ufq”) .

Ravishlarda antonim – bu maʼnosi bir-biriga zid boʻlgan ravishlardir. Bunday ravishlar ish harakatni **usuli, vaqti, joyi, miqdori** yoki **darajasi** jihatidan qarama – qarshi maʼnoni ifodalaydi. Antonim ravishlar odatda tire (-) bilan yoziladi.

Harakat usuli boʻyicha antonim ravishlar – harakatning qanday tarzda, qanday ohangda yoki usulda bajarilganligini bildiruvchi va maʼnosi zid boʻlgan ravishlardir va ular qanday? qanaqa tarzda? kabi savollarga javob boʻladi. Masalan: **tez-sekin, jiddiy-beparvo** va hokazo. Inson har ishda shoshilmasligi kerak. **Tez** fikr bildirish, tez hukm chiqarish — eng katta xato (Oʻ.Hoshimov “Dunyoning ishlari”). Otabek **sekin** gapirar, ammo har soʻzi oʻylangan, vazmin edi. Sekin soʻzlagan odamning gapi yurakka yetadi (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”). Biz jiddiy boʻlishni oʻrgandik, ammo baʼzan shu **jiddiyl**ikdan kulishning oʻzi qiyin boʻlib qoldi (S.Ahmad “Ufq”). Odamlar jim edi — goʻyo hammasi tinch, lekin bu jimlikning tagida bir **befarqlik**, bir charchoq yashiringandek (S.Ahmad “Jimjitlik”).

Vaqt boʻyicha antonimlar- bular harakatni qachon sodir boʻlganligini bildiradi va vaqt jihatidan zid maʼnoli boʻlib, qachon? kabi savollarga javob boʻladi. Masalan: **kecha - bugun, keyin - hozir** va hokazo. **Kecha** orzular bilan toʻlgan edi, bugun esa afsus bilan. Oʻtgan kechani qaytarib boʻlmas, ammo undan ibrat olish mumkin (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”). Bugun kulol, ertaga loy boʻlish mumkin. Shu bois har bir bugunni odamgarchilik bilan oʻtkaz (S.Ahmad “Ufq”). Avval bilmagandim, keyin tushundim — hayotda eng muhim narsa mehr ekan. Uni kech bilgan odam, koʻp narsani yoʻqotadi (Oʻ.Hoshimov “Dunyoning ishlari”). Hozir soʻz aytmoq kerak, Otabek. Chunki baʼzan bir lahza jimlik butun umrga arzimagan pushaymon boʻladi (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”).

Joy boʻyicha antonim ravishlar – harakatning qayerda yoki qayerga amalga oshirilganini bildiradi, makon jihatidan qarama – qarshi boʻlib qayerda? qayerga?

qayerdan? kabi savollarga javob bo'ladi. Masalan: **yuqorida – pastda, ichkarida – tashqarida** va hokazo.

Miqdor yoki daraja bo'yicha antonim ravishlar – harakat yoki holatning kuchi, miqdori, darajasini bildiradi, lekin ma'nosini bir-biriga qarama-qarshi qiladi. Masalan: **juda – uncha, ko'p – oz** va hokazo. Otabek Kumushni juda sevardi. Ammo muhabbatni faqat yurak bilan emas, aql bilan ham asrash kerakligini kech anglab yetdi (A.Qodiriy “O'tkan kunlar”). Uning qilgan ishi uncha katta ta'sir qilmaydi, deb o'ylashdi, lekin har bir kichik xato ortida katta fojia yotad (A.Qodiriy “Mehrobdan chayon”).

Hamma so'zlarning ham antonimi mavjud deb bo'lmaydi. Tilshunoslikda antonimi yo'q so'zlar ham talaygina. Bunga misol qilib ko'pincha ot so'z turkumidagi so'zlarni olish mumkin. Masalan: daftar, televizor, nok va shu kabi so'zlar.

Xulosa qilib aytganda, sinonim va antonimlar so'z boyligini oshirishda, fikrlarni aniq va ifodali yetkazishda muhim vositalardir. Sinonimlar matnni boyitib, takroriylikni kamaytira, antonimlar fikrlarni qarama – qarshi nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi. Shu sababli ularni o'rganish va to'g'ri qo'llash har bir til o'rganuvchisi va yozuvchi uchun zarur vositadir. Til boyligi va nutq aniqligi ushbu so'zlar orqali yanada samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamoloxonov - Hozirgi o'zbek adabiy tili, Talqin Toshkent 2005.
2. O'tkir Hoshimov- Ikki eshik orasi romani, "Sharq" nashriyoti Toshkent 2012, Dunyoning ishlari qissalar to'plami, Yangi asr avlodi nashriyoti, Toshkent 2019.
3. A.Qodiriy – Mehrobdan chayon romani, Navro'z nashriyoti Toshkent 2019, O'tkan kunlar romani, Yoshlar matbuoti, Toshkent 2023.
4. Said Ahmad – “Ufq” romani, G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent 1976
5. M.T. Irisqulov- Tilshunoslikka kirish, Yangi asr avlodi nashriyoti Toshkent 2009.
6. A. Hojiev- O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati, O'qituvchi nashriyoti Toshkent 1974
7. Z.T. Xolmanova- Tilshunoslikka kirish, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Toshkent 2007.